



BEXIDA MONILIOZ KASALLIGI QO'ZG'ATUVCHISNINGI ZARARI

S.A.Mirsayeva

dotsent,

A.S.Abdulazizov

- magistr,

S.Xoldarova

talaba

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas.

Behining monilioz (meva chirishi) kasalligi Yevropaning ko'p mamlakatlarida, Suriyada, Rossiyada (Krasnodar o'lkasi), Kavkaz orti davlatlarida (Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon) va Moldaviyada tarqalgan. Oxirgi yillarda monilioz O'zbekistonda deyarli barcha viloyatlarda keng tarqalib, behi daraxtlarini 100 foizgachasini zararlamoqda [1].

Monilioz bilan behining faqat fiziologik yosh to'qimalari, jumladan barglari, gullari va novdalari zararlanadi, yetilgan mevalari kam hollarda zararlanadi.

Barglarda oldin kichik, nuqtasimon qizg'ish dog'chalar paydo bo'ladi. Ular o'sib, sarg'ish yoki to'q-qo'ng'ir, deyarli qora tusli dog'larga aylanadi, barg qo'ng'ir tus oladi. Keyinchalik asosan bargning ustki tomonidagi katta tomirlari bo'ylab, dog'lar ustida kulrang mog'or rivojlanadi. Kuchli zararlangan barglar to'kiladi va novdalar yalang'och bo'lib qoladi.

Kasallikning eng xavfli shakli – daraxtlarning gul va meva tugunchalari zararlanishidir. Gullar zararlanganida meva tugunchalari va ularning atrofidagi yaproqchalar butunlay chirydi, qo'ng'ir tus oladi, kuyganga o'xshab, daraxtlarda osilib qoladi (1-rasm). Yosh novdalar ustida qo'ng'ir dog'lar va yaralar paydo bo'ladi. Daraxt uchlari sovuq urganga yoki kuyganga o'xshab qoladi. Barcha zararlangan organlarda yoqimli yertut hidini chiqaruvchi kulrang mog'or rivojlanadi. Kuzda zararlangan tugunchalarda, kamroq hollarda barglarda sklerotsiylar paydo bo'ladi [2].

Monilioz ko'p mamlakatlarda behining eng zararli kasalligi hisoblanadi. Zararlangan shona, tuguncha, barg va novda bo'g'inlari nobud bo'ladi, novdalar yalang'och va daraxlar kuchsiz bo'lib qoladi. Umuman hosil pasayishi shonalar va tugunchalar kasallik tufayli nobud bo'lishiga mutanosibdir



1- rasm. *Monilinia cydonia* zamburug'i bilan zararlangan barg, novda va mevalar

Qo'zg'atuvchi zamburug' tor ixtisoslashgan va faqat behini zararlaydi. Bexida *Monilnia cydonia* zamburug'I biologiyasi va zararini chuqur o'rganish va zamburug'ga qarshi Bionergiya -M preparatini qo'llab, biologik hamda iqtisodiy samaradorligini o'rganish maqsadida akad M.Mirzayev nomli "Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ITI" Andijon tajriba stantsiyasi sharoitida tadqiqotlar olib borilishi rejalastirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, nazoratga nisbatan biologik samaradorlik andozada 69,2 %, tajribada 74,0 -88,4 % ni tashkil etdi (1-jadval)

Adabiyotlar

1. Ҳасанов Б.А., Очилов Р.О., Холмуродов Э.А., Гулмуродов Р.А. Мевали ва ёнғоқ мевали дарахтлар, цитрус, резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари. Тошкент: "Office Print", 2010, 316 б.

Набиев Ў. Мевазор ва токзорларнинг заракунанда ҳамда касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент: "Ўзбекистон", 1974, 48 б.

1- jadval

MONILIOZ KASLLIGINI QO'ZG'ATUVCHI ZAMBURUG'GA QARSHI QOLLANILGAN BIOENERGIYA-M
PREPERATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

№	Variantlar	Preparat sarf-meyori, l/ ga	Umumiy kasallanish, %								Kasallanish darajasi, %	Biologik samaradorlik, % hisobida
			Fungitsid sepilgunga qadar		Fungitsid sepilganidan keyingi kunlar							
			O'simlik (O')	Bargi (B)	3		7		14			
		O'	B	O'	B	O'	B					
1	Nazorat (himoyasiz)	-	25,8	24,0	24,3	22,2	28,5	38,0	52,3	62,4	35,0	-
2	Andoza-Saprol 20 % em.k.	1,0	30,2	22,4	10,4	8,9	8,5	10,8	9,0	21,2	9,3	69,2
3	Tajriba Bienergiya-M	0,5	30,4	24,2	8,4	6,8	7,2	7,0	8,0	8,3	7,9	74,0
4	Tajriba Bienergiya-M	1,0	30,8	26,0	8,0	6,2	6,0	6,5	6,2	6,4	6,5	88,4